



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI


2024-YIL YANVAR-FEVRAL

ANDIJON VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024-yilning 1-mart holatiga Andijon viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 079 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 728 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 34,5 % Andijon shahrida joylashgan.

2024-yilning 1-mart holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Andijon sh.	728
Xonobod sh.	41
Oltinko'l	119
Andijon	152
Baliqchi	77
Bo'ston	99
Buloqbo'shi	62
Jalaquduq	44
Izboskan	101
Ulug'nor	44
Qo'rg'ontepa	60
Asaka	184
Marhamat	88
Shahrixon	154
Paxtaobod	63
Xo'jaobod	63

1 147

Bino va inshootlar qurilishi

296

Fuqarolik obyektlarini qurish


636

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shuningdek, Andijon shahrida 728 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 35,0 %), Asaka tumanida – 184 ta (25,3 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar uchun)

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, Andijon viloyatida jami 734,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni tashkil etdi.




Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati - bu, oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2024-yilning yanvar-fevral oylarida Andijon viloyatida qurilish ishlari

Shahar va tumanlarning hajmi va 2023-yilning mos davriga nisbati,
mlrd. so'm va foizda




2024-yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Andijon shahri (282,9 mlrd. so'm), Andijon tumani (84,4 mlrd. so'm) va Shahrixon tumanida (55,5 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-fevral oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,6 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,4 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 223,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 12,1 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 64,6 % yoki 474,0 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

30,3
mlrd. soʻm

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 30,3 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.

6,4 %

250,8
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 250,8 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 52,9 % ni tashkil etdi.


52,9 %

192,9
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hisssasi 192,9 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 40,7 % ni tashkil etdi.

40,7 %

Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2024-yilning yanvar -fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

Shahar va tumanlarning hajmi, mlrd. so'mda


	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi, jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	474,0	100,0
Andijon sh.	159,7	33,7
Xonobod sh.	13,1	2,8
Oltinko'l	27,2	5,7
Andijon	57,0	12,0
Baliqchi	9,8	2,1
Bo'ston	18,4	3,9
Buloqboshi	9,0	1,9
Jalaquduq	22,6	4,8
Izboskan	14,3	3,0
Ulug'nor	8,3	1,7
Qo'rg'ontepa	13,8	2,9
Asaka	19,3	4,1
Marhamat	24,5	5,2
Shahrixon	39,9	8,4
Paxtaobod	21,8	4,6
Xo'jaobod	15,6	3,3

2024-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahrida (159,7 mlrd. so'm), Andijon tumanida (57,0 mlrd. so'm), Shahrixon tumanida (39,9 mlrd. so'm) va Oltinko'l tumanida (27,2 mlrd. so'm) qayd etildi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish *mlrd. so'm*



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga kamayib, 57,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % punktga kamayib, 93,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida Norasmiy sektorning ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,5 % punktga ko'payib, 101,7 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi


Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd. so'mda*



Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Shahrixon (77,7 %), Marhamat (76,9 %) va Paxtaobod tumanlari (75,6 %)da kuzatildi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'm




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,1 % ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 82,9 % ni tashkil etdi. Norasmiy sektorning ulushi esa 0,0 % tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd. soʻmda*




Maʼlumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinkoʻl tumanida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 30,8 %), Xonobod shahrida (31,1 %) va Buloqboshi tumanida (24,9 %) kuzatildi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *mlrd. so'm*




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

Qolgan 94,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,5 % punktga ko'paydi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd. soʻmda*



Maʼlumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinkoʻl tumanida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 18,8 %), Xonobod shahrida (17,9 %) va Boʻston tumanida (14,8 %) kuzatildi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
359,0 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
104,8 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
101,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 36,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 359,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,5 % ga ko'payib, 5,0 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024-yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 77,8 % to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni tashkil etgan holda 571,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



2024-yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar


Shahar va tumanlarning o'sish sur'ati, hajmi, mlrd. so'mda



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (245,0 mlrd. so'm), Andijon tumanida (78,5 mlrd. so'm) va Shahrixon tumanida (48,9 mlrd. so'm) qayd etildi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 17,2 % ni yoki 126,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi. Shundan 84,1 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 29,9 mlrd. soʻmni va 88,4 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 12,4 mlrd. soʻmni va 108,6 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor


Shahar va tumanlarning o'sish sur'ati, hajmi, mlrd. so'mda



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (21,7 mlrd. so'm), Asaka tumanida (13,0 mlrd. so'm) va Paxtaobod tumanida (11,2 mlrd. so'm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

yanvar oyidagi hajm, *mlrd. so'mda*



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 37,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa, 696,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 5,1 % va 94,9 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Asaka tumani (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %), Xo'jaobod tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %) va Paxtaobod tumanida (ushbu tumanidagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 %) qayd etildi.

Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
Tel.: 74 224-80-00 (6020)